

KASB-HUNAR MAKTABI O'QUVCHILARIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Toxliyeva Gulchehra Shavkatovna

Farg'onan shaxar kasb - xunar maktabi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarini shakllantirishda integrativ yondashuvdan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, faoliyat, ijtimoiy kompitentlik, integrativ texnologiyalar.

Bugungi kundagi taraqqiyot jamiyat va shaxsnинг umumiyligi madaniyatini rivojlantirishda yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Bu ta"lim mazmuniga kompetensiyaviy yondashuvni tadbiq etishning ijtimoiy ahamiyatida yaqqol namoyon bo'ladi. Ta"lim shaxs va jamiyat ehtiyojlariga mos tarzda yangilanishi lozim. Ta"lim jarayonida yosh avlodning nazariy bilimlari va amaliy tajribasini rivojlantirish ustivor ahamiyat kasb etmoqda. Ta"lim jarayonida har bir o'quvchining bilim, ko'nikma, malakalari, dunyoqarashi, xulq-atvori shakllanib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma"naviy taraqqiyotini ta"minlashga xizmat qiladi. Ta"lim jarayonida shaxs rivojlanadi. Shaxs o'z navbatida jamiyat taraqqiyotini ta"minlaydi. Ta"lim tizimi oldiga muayyan shaxsiy sifatlar va kompetensiyalarga ega bo'lgan barkamol insonni shakllantirish vazifasi qo'yilmoqda. Bunday shaxs o'z-o'zini rivojlantiruvchi, jamiyat a"zolari bilan samarali muloqot o'rnata oladigan, umummadaniy faoliyat tajribasini egallagan, mustaqil qarorlar qabul qila oladigan, faol fuqaro sifatida shakllanishi lozim.

O'quvchilarda turli kompetensiyalarning shakllanishi pedagogik shartsharoitlarni taqozo etadi:

1) ta"lim jarayonida o'quvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish, bilimlarni mustaqil egallashlari va ularni amaliy faoliyatlarida qo'llashlari uchun qulay sharoit yaratish;

2) o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini integratsiyalashgan bilimlar yordamida egallashlari uchun qulay vaziyatlarni tashkil etish, ularning amaliy faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash. O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarini integrativ bilimlar yordamida shakllantirishda mashqlar, topshiriqlar muhim ahamiyatga ega. Pedagogik jarayonda o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarini integrativ yondashuv asosida shakllantirishda muayyan qoidalarga amal qilish lozim: o'quvchilarga integrativ bilimlarni taqdim etish, mazkur bilimlarni amaliy faoliyatlarida qo'llash

usullari bilan o'quvchilarni qurollantirish; tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning tashqi omillariga e'tibor qaratish; o'quv jarayonida shaxsiy tajribalarni faollashtirish, jumladan, kichik tadqiqotlar o'tkazish, loyihibar ustida ishslash, amaliy ko'nikmalarini faollashtirish, muloqot uslublaridan faol foydalanish, mustaqil bilim olish va o'z-o'zini rivojlantirish ko'lamini kengaytirish; o'quvchilarning o'z-o'zlarini rivojlantirishlari o'z faoliyatlarini muntazam tahlil qilish, anglash, rivojlanishning mustaqil traektoriyasini tanlash, o'zi va o'zgalarning xatti-harakatlari, xis-tuyg'ularini tushunish, muloqotga ehtiyoj sezish, muloqot qoidalariiga amal qilish kabilar. Bular ta"lim jarayonida integrativ yondashuvga tayanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda ichki pedagogik omillar muhim ahamiyatga ega. O'quvchi tafakkurining maxsuldarligi unda tayanch kompetensiyalarning shakllanishini jadallashtirishda namoyon bo'ladi. Bu o'quvchi shaxsiy faoliyatining yo'nalishlari, intilishlari, motivlari, qoidalari, qadriyatli yo'nalishlari, individualpsixologik sifatlari, ijodiy faoliyatining o'ziga xosligida ko'rindi. Ob"ektiv voqelikka nisbatan munosabat bildirish uchun ta"lim jarayoni sub"ektlarida yetarli darajada tahliliy faoliyat tajribasi shakllanishi lozim. Bu jarayonda quyidagi fikriy operatsiyalar muhim o'rinni egallaydi: fikrlash, qayta fikrlash, qayta shakllantirish, aniq faoliyat usullarini biridan ikkinchisiga ko'chira olish. O'quvchilardagi konstruktiv, ijodiy xatti-harakatlar, muammoli vaziyatlarda refleksiyadan intellektual hamda shaxsiy darajaga o'tishini ta"minlaydi. Ma"lumki, kompetentlilik shaxsning amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi. Ta"lim jarayonida kompetentlilikning namoyon bo'lmasligiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllanganligi topshiriqlarni bajarish jarayonida yaqqol ko'rindi. Buning uchun o'quv topshiriqlari ustida ishslash vaziyatlarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday vaziyatlarda o'quvchilarda shakllangan kompetensiyalar folla shadi. Kompetensiyalar o'quvchilarda shakllangan qadriyatlar bilan uyg'un tarzda namoyon bo'ladi. Buning uchun ularda muayyan faoliyat turiga nisbatan qiziqish, uni o'zlashtirish ehtiyoji va intilish shakllangan bo'lishi lozim. Amaliy faoliyat muayyan o'quv jarayoni yoki layoqatning mahsuli hisoblanadi. Ta"lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida loyihalashda o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish asosiy maqsad sifatida belgilanishi lozim. Integrativ yondashuv asosida ta"lim mazmunini tanlashda o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish o'quv materiallarining mantiqiy asosini tashkil etishi kerak. Vaziyatli topshiriqlar o'quvchilarni amaliy ko'nikmalarini egallashga yo'naltiradi. Har bir topshiriq o'quvchilarda muayyan ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi nazarda tutiladi. Shu maqsadda vaziyatli topshiriqlar majmuini belgilash talab qilinadi. Motivli vaziyatli topshiriqlar o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni egallash mayollarini hosil qiladi. Topshiriqlarni echish jarayonida o'quvchilarda

muayyan kompetensiyalarni egallahsga nisbatan moyillik vujudga keladi. XULOSA Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta“lim jarayoni samaradorligini baholashda yangi mezonlarga asoslanish talab qilinadi: bu o'rinda o'quvchilarning o'qituvchilar tomonidan berilgan savollarga qaytargan javoblari baholanmaydi, balki nazorat topshiriqlarini bajarish jarayonida amalga oshirilgan izlanishlar va texnologik faoliyat davomida yaratilgan maxsulot baholanadi. O'quvchilarning individual yoki guruhli faoliyat jarayonida taqdim etilgan maxsulotni o'zlari mustaqil yaratganliklari alohida ahamiyatga ega.

Foydalangan adabiyotlar

1. Педагогика: энциклопедия. II жилд / тузувчилар: жамоа.//Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2015. – 376 б.
2. Sharifzoda S. Integrative methods of formation of basic competencies in students. Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation; 32(3)ISSN 2651-4451 | e-ISSN 2651- 446X (2021)
3. Сафарова Р. ва б. Ўқувчиларда ўзаро дўстона муносабатларга асосланиб ҳамкорликда фаолият кўрсатиш кўникмаларини шакллантириш жараёнини ташкил этиш тамойиллари ва параметрлари. - Т.: Фан ва технология нашриёти, 2013. – 142 б.
4. Sharifzoda S. The use of an integrative approach in the formation of basic competencies in students as a socio-didactic necessity // Journal of critical reviews ISSN- 2394-5125 vol 7, issue 12, 2020 3115.